



NOBANK KREDIT TASHKILOTLARI VA MIKROMOLIYALASHTIRISH
FAOLIYATI

Parpiyev Abdulaziz Nosirjonovich

*Andijon Davlat Texnika Instituti, Muhandislik iqtisodiyoti va boshqaruv
fakulteti, Bank ishi va audit yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

+998902175662

abdulazizparpiyev107@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada, respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan nobank kredit tashkilotlari, mikromoliyalashtirish faoliyati sohasidagi munosabatlar, mikromoliyalashtirishning huquqiy asosi haqida qisqacha yozib o'tilgan.

Kalit so'zlar: lombard, mikromoliya tashkiloti, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkiloti.

Аннотация: Данная научная статья написана о связанные с деятельностью небанковских кредитных организаций, работающих в нашей республике, а также правовая основа микрофинансирования.

Ключевые слова: ломбард, микрофинансовая организация, ипотечное рефинансирование организация.

Abstract: This scientific article briefly discusses the relationships in the field of microfinance activities, the non-bank credit institutions operating in our republic, and the legal basis of microfinance.

Keywords: lombard, microfinance organization, mortgage refinancing organization.

Keyingi yillarda mamlakatimizda mikromoliyalashtirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar aholi va tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.



Shu bilan birga nobank kredit tashkilotlari faoliyatiga nisbatan belgilangan ayrim cheklovlar, shu jumladan qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyati cheklanganligi ushbu tashkilotlar tomonidan keng doiradagi iste‘molchilarga mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatilishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Shuningdek yetarli salohiyatga ega bo‘lgan mikromoliya tashkilotlarining tijorat banklari darajasiga bosqichma-bosqich “o‘sishi” uchun imkoniyatlar mavjud emasligi ushbu sohani tartibga soluvchi qonun hujjatlarining qayta ko‘rib chiqilishini talab etmoqda.

Shuningdek yetarli salohiyatga ega bo‘lgan mikromoliya tashkilotlarining tijorat banklari darajasiga bosqichma-bosqich “o‘sishi” uchun imkoniyatlar mavjud emasligi ushbu sohani tartibga soluvchi qonun hujjatlarining qayta ko‘rib chiqilishini talab etmoqda.

Shu munosabat bilan mikromoliya tashkilotlari va tijorat banklari o‘rtasida ularni bog‘lovchi “zanjir”ni shakllantirish, shuningdek mikromoliya tashkilotlari uchun qo‘shimcha moliyaviy resurslarni, shu jumladan depozitlar jalb etish imkoniyatini yaratish maqsadida, mazkur Qonun bilan bank xizmatlarini ruxsat etilgan shartlar asosida ko‘rsatishga vakolatli bo‘lgan mikromoliya banki institutini joriy etish, shuningdek mikromoliya tashkilotlarini mikromoliya banklariga va mikromoliya banklarini tijorat banklariga hamda aksincha transformatsiya qilish uchun huquqiy asos yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi qonun hududlarda bank xizmatlaridan, shu jumladan mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish ko‘lamlarini kengaytirishga, shuningdek aholi keng qatlamlarining tadbirkorlik tashabbusini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Ushbu Qonunning maqsadi nobank kredit tashkilotlari faoliyati va mikromoliyalashtirish faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Banklar tomonidan amalga oshiriladigan ayrim moliyaviy operatsiyalarning ushbu Qonunda ruxsat etilgan majmuini amalga oshiruvchi quyidagi kredit tashkilotlari nobank kredit tashkilotidir:



mikromoliya tashkiloti — mikromoliyalashtirish faoliyatini amalga oshiruvchi, shuningdek ushbu Qonunda nazarda tutilgan boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

lombard — shaxsiy iste'molga mo'ljallangan ko'char mol-mulkning (ashyoning) zakalat tarzidagi garovi asosida jismoniy shaxslarga qisqa muddatli mikroqarzlarni berishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

ipotekani qayta moliyalashtirish tashkiloti — moliyaviy mablag'larni jalb qilish va ularni ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirishga yo'naltirish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

Nobank kredit tashkilotlarining faoliyati

Mikromoliya tashkilotlari:

mikromoliyalashtirish faoliyatini amalga oshirishga;

to'lov agenti (subagenti) yoki banklarning, sug'urta va boshqa moliya tashkilotlarining agenti vazifalarini amalga oshirishga;

o'zi amalga oshirayotgan faoliyat bilan bog'liq maslahat va axborot xizmatlarini ko'rsatishga;

tadbirkorlik subyektlariga mikrocredit summasidan oshadigan miqdorda kreditlar, lizing, kafolatlar berishga, faktoring xizmatlari va islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar ko'rsatishga haqli.

Islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar deganda islomiy moliyalashtirishni amalga oshirish standartlarini belgilovchi xalqaro tashkilotlarning qoidalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (bundan buyon matnda Markaziy bank deb yuritiladi) tomonidan ishlab chiqilgan tartibda ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar tushuniladi.

Lombardlar:

shaxsiy iste'molga mo'ljallangan ko'char mol-mulkning (ashyoning) zakalat tarzidagi garovi asosida jismoniy shaxslarga qisqa muddatli (bir yilgacha) mikroqarzlarni berishga;

jismoniy shaxslardan shaxsiy iste'molga mo'ljallangan ko'char mol-mulkni (ashyoni) vaqtinchiq saqlash uchun qabul qilishga haqli.



Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari:

1) quyidagilar orqali ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirishni amalga oshirishga:

a) banklarga ular tomonidan berilgan yoki beriladigan ipoteka kreditlariga moliyaviy mablag'lar taqdim etishga;

b) banklar tomonidan berilgan ipoteka kreditlari bo'yicha talab qilish huquqini olishga;

v) pul mablag'larini banklar tomonidan chiqarilgan ipoteka qimmatli qog'ozlariga joylashtirishga;

2) ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirish bilan bog'liq maslahat va axborot xizmatlarini ko'rsatishga haqli.

Nobank kredit tashkilotlari xizmatlarni masofadan turib (elektron xizmatlar) ko'rsatishga, O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlarini, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini va ularning qarz qimmatli qog'ozlarini sotib olishga, bo'sh pul mablag'larini bankka omonatlar (depozitlar) sifatida kiritishga, shuningdek qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishga haqli.

Mikromoliyalashtirish faoliyati

Yuridik shaxslarning quyidagi xizmatlarni ko'rsatishga doir faoliyati mikromoliyalashtirish faoliyati deb e'tirof etiladi:

jismoniy shaxs bo'lgan qarz oluvchiga to'lovlilik, muddatlilik va qaytarish shartlari asosida yuz million so'mdan oshmaydigan miqdorda pul mablag'larini — mikroqarz berish;

tadbirkorlik subyekti yoki o'zini o'zi band qilgan shaxs bo'lgan qarz oluvchiga to'lovlilik, muddatlilik va qaytarish, shuningdek shartnomada nazarda tutilgan hollarda muayyan maqsadlar uchun foydalanish shartlarida uch yuz million so'mdan oshmaydigan miqdorda pul mablag'larini — mikrokredit berish;

jismoniy shaxslarga mikroqarz summasidan oshmaydigan miqdorda kreditlar va kafolatlar berish, islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar ko'rsatish;



tadbirkorlik subyektlariga mikrokredit summasidan oshmaydigan miqdorda lizing va kafolatlar berish, faktoring xizmatlari hamda islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar ko'rsatish.

Banklar, mikromoliya va to'lov tashkilotlari, shuningdek mikroqarzarlar berishga oid qism bo'yicha lombardlar mikromoliyalashtirish faoliyatini amalga oshirishga haqli.

Fikrimizcha barcha turdagi nobank kredit tashkilotlari o'ziga xos mijozlarga xizmat ko'rsatishga qaratilgan. Kredit berishni ma'lum darajada soddalashtirish nobank kredit tashkilotlariga har xil turdagi tadbirkorlar uchun qo'shimcha jozibadorlikni berishi kerak. Lekin asosiysi, bularning barchasi milliy qonunchilik tomonidan yaratilgan tegishli huquqiy tomonlariga e'tibor qaratishlari zarur. Nobank kredit tashkilotlari iqtisodiyotda muhim o'rin tutadi, chunki ular kichik va o'rta biznes sub'ektlari, shuningdek, an'anaviy bank tizimlaridan chetda qolishi mumkin bo'lgan aholiga moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Ushbu tashkilotlar kreditlashning turli turlarini, jumladan, iste'mol kreditlari, mikrokreditlar va kichik biznes kreditlarini taklif qilishadi. Ular odatda moslashuvchan kredit shartlariga va qarz oluvchilarga nisbatan kamroq talablarga ega bo'lib, ko'proq odamlarga moliyalashtirishdan foydalanishga zamin yaratadi. Bundan tashqari, bankdan tashqari kreditorlar ko'pincha ma'lum iqtisodiy tarmoqlar yoki iste'molchilar guruhlar bo'yicha ixtisoslashgan bo'lib, bu ularga o'z mijozlarining ehtiyojlarini yaxshiroq tushunish va ko'proq mos xizmatlarni taklif qilish imkonini beradi. Ushbu tashkilotlar kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llabquvvatlash va maslahatlar berish orqali mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish va tadbirkorlikni rivojlantirishda ham o'z hissasini qo'shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.04.2022 yildagi O'RQ-765-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-2025 yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son Farmoni. www.lex.uz



3. O‘zbekiston Respublikasining “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2022 yil 17 mart. www.lex.uz
4. Лаврушин О.И. Денги, кредит, банки // Москва: Финансы и статистика, 2000. – С 16
5. Хакимов Ш.Х. Развитие микрофинансирования в Узбекистане. – Тошкент, 2005.; С.
6. Таджибаева. Д.А, Муминов. И.О. Микрофинансирование: руководство для микрофинансовых организаций.- Тошкент: МОЛИЯ, 2009. – С. 11